



**ANDIJON VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

ANDIJON VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2022- YIL
YANVAR-FEVRAL**



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

2022- yilning yanvar-fevral oylarida, Andijon viloyatida jami **668,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **102,1 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Yirik qurilish tashkilotlari

16,6

1,5

81,9


Norasmiy sektor

Kichik korxona
va mikrofirmalar

2022- yil - yanvar-fevral holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar, birlikda



Shahar va tumanlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021- yil yanvar-fevral oylari bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 102,1 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaranganda:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 60,2 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 2,2 foizga kamaygan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 8,4 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 0,8 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 31,4 foiz ulushni va 1,4 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.03.2021	01.03.2022	
Viloyat bo'yicha jami	3163	3221	101,8
Andijon sh.	1350	1285	95,2
Xonobod sh.	69	66	95,7
Oltinko'l	133	144	108,3
Andijon	221	230	104,1
Baliqchi	106	114	107,5
Bo'ston	96	114	118,8
Buloqboshi	74	77	104,1
Jalaquduq	81	79	97,5
Izboskan	130	156	120,0
Ulug'nor	50	52	104,0
Qo'rg'ontepa	88	100	113,6
Asaka	249	262	105,2
Marhamat	144	143	99,3
Shahrixon	208	214	102,9
Paxtaobod	90	92	102,2
Xo'jaobod	74	93	125,7





Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-fevral oylari uchun


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofimlar	Norasmiy sektor
Viloyat bo'yicha jami	668,8	10,0	547,9	110,9
Andijon sh.	244,9	7,7	211,1	26,1
Xonobod sh.	18,5	0,3	17,3	0,9
Oltinko'l	31,5	0,1	23,9	7,6
Andijon	86,9	-	80,7	6,3
Baliqchi	12,3	0,3	8,0	4,0
Bo'ston	28,7	1,2	26,4	1,1
Buloqboshi	11,4	-	6,1	5,2
Jalolquduq	24,5	-	17,1	7,4
Izboskan	21,3	-	16,7	4,7
Ulug'nor	9,3	0,1	7,6	1,6
Qo'rg'on	17,6	0,4	11,8	5,4
Asaka	24,4	-	14,0	10,4
Marhamat	33,2	-	24,8	8,4
Shahrixon	54,2	-	49,5	4,7
Paxtaobod	29,4	-	18,7	10,7
Xo'jaobod	20,5	-	14,2	6,4



2022- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 10,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 48,5 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 1,6 % punktga kamaydi, 1,5 % ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Andijon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 77,0 % yoki 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 186,1 %),

2022- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 81,9 % i to'g'ri kelib, 2021- yil ko'rsatkichiga nisbatan 3,3 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 104,1 % ni tashkil etgan holda 547,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



81,9

2022- yil
yanvar-fevral

78,6

2021- yil
yanvar-fevral




MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Andijon shahri (211,1 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 38,5 %), Andijon tumani (80,7 mlrd. so'm yoki 14,7 %), Shahrixon tumani (49,5 mlrd. so'm yoki 9,0 %)ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **16,6 %** ni tashkil etdi yoki **110,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **102,7 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda


Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **29,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **639,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,4 %** va **95,6 %** ni tashkil etdi.

2021- yil
yanvar-fevral



Davlat mulki

2022- yil
yanvar-fevral



Nodavlat mulk

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2022- yil yanvar-fevral oylarida



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **62,4 %** yoki 417,6 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

2,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 10,0 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 306,5 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **73,4 %** ni tashkil etdi.

73,4 %


24,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 101,1 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **24,2 %** ni tashkil etdi.

	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O‘sinh sur‘ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
Viloyat bo‘yicha jami	668,8	102,1	417,6
Andijon sh.	244,9	105,3	158,1
Xonobod sh.	18,5	89,4	9,5
Oltinko‘l	31,5	90,2	17,7
Andijon	87,0	96,2	44,6
Baliqchi	12,3	101,3	10,9
Bo‘ston	28,8	109,4	18,8
Buloqboshi	11,4	108,6	4,5
Jalaquduq	24,5	93,6	15,4
Izboskan	21,3	107,3	14,8
Ulug‘nor	9,3	101,5	9,8
Qo‘rg‘ontepa	17,6	89,9	13,2
Asaka	24,4	106,1	17,8
Marhamat	33,2	107,3	11,7
Shahrixon	54,2	102,2	35,7
Paxtaobod	29,4	115,3	22,4
Xo‘jaobod	20,5	101,9	12,7



Ma‘lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 1,8 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 4,6 % punktga kamayib, 77,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa yanvar-fevral oylariga nisbatan 4,8 % punktga ko'payib, 21,2 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 1,3 % ni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,7 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 91,3 % (9,7 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 7,4 % ni tashkil etdi (9,0 % punktga kamayish).

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxona va mikrofirmalar




Norasmiy sektor

2021- yil
yanvar-fevral



2022- yil
yanvar-fevral


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 1,8 % punktga kamaydi va 0,2 % ni tashkil etdi. Qolgan 99,8 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 18,2 % punktga ko'paydi.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari
2022- yil yanvar-fevral


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
Viloyat bo'yicha jami	668,8	491,5	85,9	91,4
Andijon sh.	244,9	189,0	27,0	29,0
Xonobod sh.	18,5	11,3	6,0	1,2
Oltinko'l	31,5	19,2	5,9	6,5
Andijon	86,9	59,8	17,4	9,7
Baliqchi	12,3	11,0	0,9	0,4
Bo'ston	28,7	19,7	0,4	8,6
Buloqboshi	11,4	7,2	0,9	3,3
Jalaquduq	24,5	9,0	7,0	8,5
Izboskan	21,3	14,7	0,1	6,6
Ulug'nor	9,3	3,6	1,9	3,8
Qo'rg'ontepa	17,6	13,3	3,8	0,4
Asaka	24,4	17,7	1,7	5,1
Marhamat	33,2	27,1	5,5	0,6
Shahrixon	54,2	46,8	4,6	2,7
Paxtaobod	29,4	26,1	1,9	1,4
Xo'jaobod	20,5	15,9	1,0	3,7



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-fevral



ulushi % da



**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (74) 228-29-37